

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 9 148 tani tashkil etdi.


Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil 1-aprel holatiga, birlik	2025-yil 1-aprel holatiga, birlik
Sirdaryo viloyati	10 591	9 148
Guliston sh.	2 492	2 221
Shirin sh.	264	194
Yangiyer sh.	779	720
Oqoltin	730	611
Boyovut	935	753
Sayxunobod	804	634
Guliston	826	649
Sardoba	866	880
Mirzaobod	939	801
Sirdaryo	1 351	1 163
Xovos	605	522

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-mart oylarida 459 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 188 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 81 ta, sanoatda 68 ta hamda boshqa xizmatlarda 39 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-mart oylarida, birlik	2024-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Sirdaryo viloyati	520	459
Guliston sh.	114	115
Shirin sh.	5	3
Yangiyer sh.	30	35
Oqoltin	86	31
Boyovut	39	32
Sayxunobod	30	36
Guliston	48	21
Sardoba	38	38
Mirzaobod	43	55
Sirdaryo	47	73
Xovos	40	20

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)




III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025-yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 62,1% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 5,8% ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 17,7%, qurilishda – 7,4%, xizmatlar sohasida – 41,3% va sanoatda – 33,6% ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAHMdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 094,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 44,2% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 140,7% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0%), Xovos (89,6%), Boyovut (87,3%), Yangiyer shahar (73,7%) va Mirzaobod (73,0%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 811,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 82,4% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,1% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (100,0%), Guliston shahar (96,0%) va Sayxunobod (95,6%) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 678,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 73,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 236,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahar (97,1 %), Yangiyer shahar (95,8 %), Sayxunobod (74,0%) va Oqoltin (73,4%) tumanlariga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 1 651,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,7% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,4% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Oqoltin (99,4%), Guliston (99,3%), Boyovut (99,2%) va Xovos (99,1%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


- Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish hajmi (choraklik)
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarishdagi ulushi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 1 651,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 97,7% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oqoltin (99,4%), Guliston (99,3%), Boyovut (99,2%) va Xovos (99,1%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Yillar

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


- Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi (choraklik)
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 1 829,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 65,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mirzaobod (79,0%), Yangiyer shahar (74,5%), Shirin shahar (73,2%), Sirdaryo (72,1%) va Xovos (70,7%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 41,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 67,9% ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oqoltin – 100,0%, Xovos – 95,1%, Shirin shahar – 93,3%, Mirzaobod – 91,6%, Sayxunobod – 91,3% va Yangiyer shaharda – 89,9% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 88,2 mln AQSH dollarini yoki jami importning 70,6% ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Guliston – 100,0%, Oqoltin – 100,0%, Mizaobod – 99,8%, Yangiyer shahar – 99,6%, Boyovut – 99,5%, Xovos – 84,8%, Sirdaryo tumanlarida – 84,6% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi

2025-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,9% ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 84,6% ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,7% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,5% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,5% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-mart oylarida 28,3% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-mart oylarida esa 26,0 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,3 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-mart oylarida 60,1 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-mart oylarida 64,7 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-mart oylarida 11,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-mart oylariga kelib, bu ko'rsatkich 9,3 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-mart oylarida 55,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-mart oylarida 54,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-mart oylarida 39,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-mart oylarida 43,8 % yoki 12,1 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-mart oylarida 5,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-mart oylariga kelib, bu ko'rsatkich 1,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 34,5 % ni, savdoda – 32,6 % ni va xizmatlar sohasida – 27,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 81,5 % ni, qurilishda – 69,4 % ni va xizmatlar sohasida – 64,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,1 % ni, sanoatda – 9,8 % ni va savdoda – 9,3 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA
BOSHQARMASI**

*E'lon qilish
sanasi:
28.04.2025-y.*

PRESS-RELIZ
*Sirdaryo viloyati
kichik tadbirkorlik subyektlarining
asosiy ko'rsatkichlari*

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

Sh. Shadmankulov
67 236-70-00 (2030)
